



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLLIY VA O'RTA MAHSUS
TALIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

SPORTDA VA YOSH AVLOD JISMONIY TARBIIYASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Respublika ilmiy retsenziyalangan
onlayn-konferensiya

MATERIALLARI



29-sentabr 2021-yil

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ФАКУЛЬТЕТИ

СПОРТДА ВА ЁШ АВЛОД ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯСИДА
ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СПОРТЕ И ФИЗИЧЕСКОМ
ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN SPORT AND PHYSICAL
EDUCATION OF YOUNG GENERATION

Республика илмий рецензияланган онлайн-конференция
2021 йил 29 сентябрь

Бухоро - 2021

“Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” га бағишланган, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-Ф сон фармойишига асосан Бухоро давлат университетиди халқаро ҳамкорлар иштирокида **2021 йил 29 сентябрь** куни “Спортда ва ёш авлод жисмоний тарбиясида инновацион технологиялар” мавзусида Республика илмий рецензияланган онлайн-конференция ўтказилади.

Анжуманнинг мақсади: Ёш авлоднинг ҳаракат фаоллигини оптималлаштириш муаммоларини ҳал этишнинг янги йўллари излаш, уларнинг жисмоний тайёргарлиги ҳамда жисмоний тарбияси жараёнига янги шакллар ва методларни жорий қилиш бобида методологик ва услубий шароитларини ўрганиш.

Анжуманнинг ташкилий қўмитаси:

- | | | |
|----|-----------------|--|
| 1 | О.Х.Хамидов | БухДУ ректори, раис |
| 2 | О.С.Қаҳҳоров | БухДУ инновация ва илмий ишлар бўйича проректори, раис муовини |
| 3 | Б.Б.Маъмуров | Жисмоний маданият факультети декани, аъзо |
| 4 | С.Қ.Қаҳҳоров | БухДУ ходимлар ва талабалар касаба уюшмаси раиси, аъзо |
| 5 | У.У.Рашидов | БухДУ молия ва иқтисодиёт ишлари бўйича проректори, аъзо |
| 6 | Г.Т.Зарипов | БухДУ И ва ИПКТ бўлими бошлиғи, аъзо |
| 7 | Р.С.Шукуров | Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси мудири, аъзо |
| 8 | А.Э.Сатторов | Факультетлараро жисмоний тарбия ва спорт кафедраси мудири, аъзо |
| 9 | Қ.П.Арслонов | Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси доценти, аъзо |
| 10 | Ф.Б.Музаффарова | Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси катта ўқитувчиси, р.f.b.f.d.(PhD), аъзо |
| 11 | Р.С.Баймурадов | “Факультетлараро жисмоний тарбия ва спорт кафедраси” катта ўқитувчиси, аъзо |
| 12 | Ф.А.Нарзуллаев | “Факультетлараро жисмоний тарбия ва спорт кафедраси” катта ўқитувчиси, аъзо |
| 13 | М.М.Тўраев | Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси ўқитувчиси, аъзо |

Барча маъруза тезислари (мақолалар) таҳририят томонидан анонимлаштирилган ҳолатда текширилади ва текширувдан ижобий ўтган маъруза тезислари нашр этилади ҳамда ҳар бир муаллифга электрон СЕРТИФИКАТ берилади. Маъруза тезисларида берилган маълумот учун муаллифларнинг ўзлари жавобгар ҳисобланишади. Конференция материаллари тўпламини 2021 йил 15 октябрь кунидан бошлаб <https://interscience.uz> расмий сайтдан юклаб олишингиз мумкин.

Конференция тўпламида нашр этилган илмий тезислар (мақолалар) **GOOGLE SCHOLAR, CROSSREF** халқаро базасида индексацияланади, ҳар бирига алоҳида **Crossref DOI** рақам берилади.

Мазкур онлайн конференцияда профессор-ўқитувчилар ва илмий тадқиқотчилар жисмоний тарбия ва спорт йўналишида ўз илмий изланишлари натижасида тайёрланган маъруза тезислари (мақолалар) билан қатнашади

Хулоса. Белбоғли курашчиларнинг мусобақа фаолиятининг энг муҳим, лекин энг кам ўрганилган жиҳатларидан бири бу белбоғни тўғри ушлаш ва усулларни бажараётганда мувозанат сақлаш ҳисобланади. Бу эса болаларни белбоғли кураш спорт турига саралаш жараёнидаги энг муҳим ҳаракат фаолиятларидан бири ҳисобланади. Шундай қилиб, курашчиларнинг МЖТини баҳолаш учун ишлаб чиқилган тест, мусобақа беллашувларини ўтказиш вақтидаги алоҳида ҳаракат хусусиятларидан бири ҳисобланади. Белбоғли кураш спорт турига болаларни саралаш тизимини яратишда махсус ишлаб чиқилган тестдан фойдаланиш болаларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги ҳамда келажакдаги техник-тактик имкониятларини башорат қилиш ва баҳолаш қолаверса мураббий педагогалар саралаб олинган болаларни техник ҳаракатларини бошқаришлари учун имконият яратади. Умумий олганда МЖТ даражасини ифодалайдиган юқорида кўрсатилган тестдаги алоҳида кўрсаткичларни модель кўрсаткичлар билан таққослаш, машғулот жараёнини болаларни жисмоний имкониятлари ҳамда ёш хусусиятлари, МЖТ даражасидан келиб чиқиб самарали ташкил этиш имконини беради.

Адабиётлар

1. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти ЎзЖТИ нашриёт-матбаа бўлими. 2018.-Б. 198-190 .
2. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотлар. Тошкент 2018 й.- 334 б.
3. Халмухамедов Р.Д. Шин В.Н Абдурасулова Г.Б. Тажибаев С.С Ёш яккакурашчиларни кўп йиллик тайёргарлик жараёнининг турли босқичларида саралашнинг меъёрлари/ ўқув-услубий кўлланма ЎзЖТИ., 2013.- 166 б.
4. Мирзакулов Ш.А., Мирзанов Ш.С., Артиқов З.С., Қирғизбоев М.М., / Белбоғли кураш бўйича спорт педагогик маҳоратини ошириш. - Тошкент, 2018.- 202 б.
5. Нуршин Ж.М. Мирзакулов Ш.А Ёш белбоғли курашчиларнинг жисмоний тайёргарлиги. / Халқаро илмий-амалий анжуман “Жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари назарияси ва услубиятининг замонавий муаммолари”, II қисм. Тошкент, 2015, - Б.83-84

FUTBOL SPORTIDA MASHG'ULOT JARAYONLARINI BOSHQARISH ASOSLARI

10.53885/edinres.2021.57.22.074

Mo'minov F.I

Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan mamlakatda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni, jumladan futbolni rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4956-sonli Farmoni, 2017 yil 15 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-2779-sonli, 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-sonli va 2017 yil 9 martdagi «O'zbekiston sportchilarining 2020 yil Tokio shahrida bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida»gi PQ-2821 sonli Qarorlari va 2019 yil 4 dekabrda «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5887-son Farmoni bu fikrlarning yorqin namunasidir.

Yuqorida qabul qilingan xujjatlar mamlakatda yuqori malakali futbolchilar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimi ikki yo'l bilan rivojlanayotganligi kuzatilmoqda. Ulardan biri – mashg'ulot va musobaqa yuklamalari hajmi va jadalligini ko'paytirish bo'lsa, ikkinchisi – mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini

tuzilishini ularning sportchi organizmiga ko'rsatadigan ta'siri, yuklamalarning turli xil tarkibiy qismlari, yuklamalar tuzilishi dinamikasining mashg'ulot bosqichlarida shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga ta'siri haqidagi ma'lumotlarga asoslangan holda sifatli takomillashtiradi. Mashg'ulotlarni eng qulay vosita va uslublarni izlab topish ko'p jixatdan musobaqa boshqaruvi haqidagi bizning tasavvurlarimizni biroz bo'lsada haqiqatga yaqinlashtiradi.

So'nggi yillarda jahonning yetakchi jamoalari o'yinlarida bir tomondan o'yinchilarni shug'ullanganlik darajasini o'sganligi, boshqa tomondan ularni o'zaro ta'sir ko'rsatish uslublarni takomillashtirish bilan bog'liq ahamiyatli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Demak o'yinning keyingi rivoji asosan o'yinchilarning jamoaviy o'zaro harakati tuzilmasini takomillashtirishga bog'liq, chunki jamoaviy o'yinni talab darajasida tashkil etish bilan alohida individumning optimal faoliyatiga erishish mumkin.

Bu holatni bugungi kunda asosan futbolchilarni individual va guruhli harakatlarini sifatli tahlil qilishga imkon yaratuvchi musobaqa faoliyatini ilmiy asoslangan tizimli tahlil etish bilangina baholash mumkin.

Musobaqa faoliyatini ayni vaqtdagi mavjud tizimlari asosan alohida futbolchilarni o'yin harakatlarini qayd qilishdan iborat, bu esa o'z navbatida ularni individual imkoniyatlari doirasidan chetga chiqishga imkon bermaydi. Albatta, o'yin natijasi individual ko'rsatkichlarga bog'liq, biroq bu bog'liqlik alohida o'yinchilarning to'g'ri, yaxshi yoki mukammal harakatlarini jamlashdaemas, balki individumlarning harakati jamoaviy o'yin tamoyillariga mos kelishidadir. Ammo bu holatda, biz jamoaviy emas, individual taktika bilan shug'ullanamiz, chunki jamoada doimo xatto alohida o'yinchilarda topilmaydigan hususiyatlar mavjuddir.

Demak, zamonaviy futbolda jamoaviy daraja faqatgina futbolchilarni o'zaro harakatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yordamida to'g'ri tashkil etilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy futbolda musobaqa faoliyati va mashg'ulot yuklamalarini sportchi organizmiga ko'rsatadigan ta'sirini kompleks tahlil qilish tamoyillari va uslublarni ishlab chiqish ayni vaqtda dolzarb hisoblanadi.

Boshqaruv keng ma'noda sportchining oldindan rejalashtirilgan bir holatdan boshqasiga o'tishini nazarda tutadi. Bu tushunchani futbolchilarning mashg'ulot jarayonlarida boshqaruvning yakuniy maqsadi sifatida aks ettirilishi jismoniy holatni barqaror yaxshilash bilan musobaqa mashqlarida yuqori natijalarga erishish hisoblanadi. Bir holatdan boshqasiga o'tishga ta'sir ko'rsatuvchi maxsus vositalar (ustunlik bilan jismoniy mashqlar), ovqatlanish, yashash sharoiti, tashqi muhit va boshqalar bu jarayonda hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Sportchi holatining uch hil turi farqlanadi:

- o'zgaruvchan -uzoq vaqt davomida o'zgaradi, yildan-yilga, mashg'ulotning bir bosqichidan keyingi bosqichga;

- joriy - har kuni o'zgarib turadi va kundalik mashg'ulot yuklamalarining oqibati hisoblanadi;

- tezkor - sportchi organizmining yuklamalarga tezkor ta'sirini aks ettiradi.

Yu.V.Verxoshenskiyning fikricha, boshqaruv quyidagi murakkab irarxik tizimdan tashkil topgan:

- atletning maxsus ishchanlik qobiliyati yoki uning holati darajasiga asoslangan maxsus jismoniy tayyorgarlik kompleksi;

- bir qator tashqi o'zaro munosabatlar;

- mashg'ulot yuklamalari.

N.G. Ozolin o'z navbatida sportchilar tayyorgarligini boshqarish tuzilmasida quyidagi komponentlarni ajratib beradi:

- sportchining individual imkoniyatlari va qobiliyatlarini izlab topish;

- maqsad qo'yish va unga erishish muddatlari;
- ta'lim, tarbiya, funksional imkoniyatlarni oshirish kabi aniq va to'g'ri vazifalarni aniqlash;

- mashg'ulot vositalari va uslublarini tanlash;

- mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini nazorat qilish va hisoblash.

Kompleksni muvaffaqiyatli amalda qo'llanilishi boshqariluvchanlik hisoblanadi.

Asosiy e'tiborni olingan dastlabki axborotlarni to'g'riliga qaratish juda muhim, chunki rejalashtirilayotgan vazifalar va ko'rsatmalar mazmuni aynan uning ishonchliligiga bog'liq.

Futbolchilarni musobaqa faoliyati va tayyorgarligining sifat va miqdoriy tomonlari haqidagi ma'lumotlar ham katta ahamiyatga ega, chunki ular model tavsiflarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Bosqichma-bosqich nazorat tizimlarini ishlab chiqish futbolchilar musobaqa faoliyati va tayyorgarligi haqidagi ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. V.N.Platonovning ta'kidlashicha, uning natijalari «...ishning asosiy yo'nalishi va oldinga qo'yilgan vazifalarga erishish yo'llarini aniqlaydi, pedagogik ta'sir vositalari va uslublariga shart qo'yadi».

Olingan ma'lumotlardan foydalanib, mashg'ulot jarayonini mikro-, mezo va makrotuzilmalari rejalashtiriladi.

Belgilangan dasturlarni amalga oshirish jarayonlarida futbolchilarning shug'ullanganlik darajasidagi xaqiqiy o'zgarishlar qanchalik rejalashtirilganligiga mos kelishini doimo taqqoslab borish, mashg'ulot bosqichidan bosqichiga tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'sish tempi hamda yuklamalar dinamikasini hisobga olib borish, bunda albatta doimiy tibbiy-biologik nazorat zarur.

Oliy liga jamoalari zahirasi hisoblangan yosh futbolchilarning tayyorgarlik amaliyotida mashg'ulot jarayonlarining barcha boshqarish komponentlari qo'llanilishi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. M.A.Godik tomonidan quyidagi yosh futbolchilarni tayyorgarlik sifatini oshirish vazifalari oldinga suriladi:

- futbolni rivojlantirishning asosiy g'oyalarini aniqlash va 10-15 yil oldinga bashoratlarni amalga oshirish; bu esa o'z navbatida «futbolchiga nisbatan yaqin kelajakka» qo'yilgan talablarni belgilashga imkoniyat yaratadi;

- yosh futbolchilarning harakat imkoniyatlari, shaxs tuzilmasi va boshqa sifatlari darajasini, ayniqsa, tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichida, ularni nazorat natijalari va kelgusi natijalari haqida bashoratlarni amalga oshirish bo'yicha toifalanishini aniqlash;

- tayyorgarlikning boshlang'ich bosqichida, testanuvchi yuklamalarni ma'lum tarzda rejalashtirilgan tuzilmalari sharoitida yosh sportchilar tanlovini tashkil etish.

**СКАНДИНАВЧА ЮРИШ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ БОЛАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ
ТАЙЁРГАРЛИГИНИ МАНИТОРИНГ ҚИЛУВЧИ КОМПЮТЕР ДАСТУРИ "SKAN.XOD"**
10.53885/edinres.2021.88.71.073

Керимов Ф. А.

Профессор, педагогика Фанлар доктори УзДЖТСУ

Азизов М.М.,

Наманган давлат университети таянч доктаранти

Тел: +998942761303, @mail: mirzohid.azizov@bk.ru

Аnotatsiya: Мазкур мақолада умумтаълим мактаби бошлангич синф ўқувчиларига, соғломлаштирувчи Скандинавча юришини ўргатишда, "SKAN.XOD" замонавий компютер дастурининг ахамияти хақида хақида со'з борган.

Калит со'zлар: Skandinavcha yurish, ilmiy uslubiy tamoyillar, sog'lom xayot, umumiy qoidalar, texnika, jismoniy ko'rsatkich, kompyuter dasturi.

**КОМПЬЮТЕРНАЯ ПРОГРАММА, КОНТРОЛИРУЮЩАЯ ФИЗИЧЕСКУЮ
ПОДГОТОВКУ ДЕТЕЙ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ СКАНДИНАВСКОЙ ХОДЬБОЙ**

Керимов Ф. А.

Ф.А. Керимов, А.У. Хамиджонов. БЕЛБОҒЛИ КУРАШ СПОРТ ТУРИГА 9-14 ЁШЛИ БОЛАЛАРНИ САРАЛАШДА МАХСУС ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИ КЎРСАТКИЧЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ.....	62
Mo'minov F.I. FUTBOL SPORTIDA MASHG'ULOT JARAYONLARINI BOSHQARISH ASOSLARI	67
Керимов Ф. А., Азизов М.М. СКАНДИНАВЧА ЮРИШ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ БОЛАЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ МАНИТОРИНГ ҚИЛУВЧИ КОМПЮТЕР ДАСТУРИ "SKAN.XOD"	69

2-ШЎҒБА. ЎСМИРЛАР ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР СПОРТИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.....

Сафаралиев Б.С., Файзиев Я.З. ПОЛОВОЗРАСТНЫЕ НАРОДНЫЕ ИГРЫ И РАЗВЛЕЧЕНИЯ КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ДОСУГА У ТАДЖИКОВ	74
F.I.Qo'ziyeva, A.A.Mamanazarov. MAMLAKATIMIZDA XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS STRATEGIK DASTURLARI	79
С.Т.Неъматов. ХОТИН-ҚИЗЛАРНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШДА ВА УЛАРНИ РУХИЙ ТАЙЁРЛАШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ РОЛИ.....	81
Баймурадов Раджаб Сайфитдинович, Бахшуллаева Малохат, Жамилова Гульчехра. ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА НА ВСЕСТОРОННЕЕ РАЗВИТИЕ ПОДРОСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ.....	83
Gafurova Moxira Yunusovna. O'QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARGA QIZIQISH VA KO'NIKMALARNI TARBIYALASH	87
Р.Х. Кадиров, М. Тўраев. СПОРТЧИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШНИНГ КОРРЕКЦИОН ЁНДАШУВЛАРИ	90
Кадиров Рашид Хамидович. СПОРТ ТАЙЁРГАРЛИГИ АМАЛИЁТИДА ДИАГНОСТИК ТЕСТ ИШОНЧЛИГИНИ АНИҚЛАШ МЕТОДИКАСИ	94
G'afurov N.M. Xotin-qizlar sportining rivojida jismoniy tayyorgarlik va uning o'rni.....	98

3-ШЎҒБА: ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА СОҒЛОМЛАШТИРУВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР.....

Баянкин О.В., Супрунов С.И., Попова Н.В. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НЕТРАДИЦИОННЫХ СРЕДСТВ В ПРОЦЕССЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ШКОЛЬНИЦ НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ.....	100
Фатуллаева Муаззам Азимовна, Базарова Дилроза Чариевна. Продвигайтесь к здоровому образу жизни!.....	103
A.A.Afraimov, Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish texnologiyalari	106
Курбонов Х.Х. КИЧИК ЁШДАГИ БОЛАЛАР БИЛАН БАДИЙ ГИМНАСТИКА БЎЙИЧА МАШҒУЛОТ ОЛИБ БОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ	108
Rahmonov Rauf Rasulovich. O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNI YUGURISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	110
Хайдаров Улугбек Рустамович, Кадиров Рашид Хамидович. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ОБОСНОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ СКОРОСТНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СПРИНТЕРОВ УЧЕБНО -ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЫ.....	114
Хасанов Р.А. СПОРТЧИДА КУЧ ВА ТЕЗКОРЛИК СИФАТЛАРИНИНГ ЗАРУРИЙЛИГИ.....	121
Djuraeva Maxasti Zokir qizi, Sayiddinova Latofat Sharofiddin qizi. JISMONIY TARBIYA VA SPORT XALQNING UMUMIY MADANIYATINING AJRALMAS QISMI.....	124
A.T.Gulboyev. QUDRATLI YURTNING FARZANDLARI SOG'LOM BO'LADI.....	126
Farmonov O'tkir Alimovich. TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BASKETBOL SPORTINING INTERAKTIV BAZAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	129
Elibaeva L.S. BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA SPORTNING O'RNI.....	132



Ministry of
Innovative development
of the Republic of Uzbekistan



BUXORO
DAV'LAT
1930
UNIVERSITETI

“СПОРТДА ВА ЁШ АВЛОД ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯСИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР”

мавзусидаги халқаро ҳамкорлар иштирокида Республика
илмий рецензияланган онлайн-конференцияда фаол
иштироки учун

Shirshov S.D. eruz

СЕРТИФИКАТ

билан тақдирланади

БухДУ ректори:

О.Х. ХАМИДОВ

